



2018 yilning yanvar-iyul oylarida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **113,1 trln.so'mni**, o'sish sur'ati - **110,7 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **106,0 % ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **35,0 % ni** tashkil etdi
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **32,9 % ni** tashkil etdi
- Faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini soni - **53404 birlikni** tashkil etadi


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalarini tomonidan 113,1 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,6 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning – 31,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 1,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 35,6 % ga o'sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



2018 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'rishiga qo'shgan hissasi








Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18,4 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,3 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 martaga, kaolin - 1,8 martaga, gaz kondensati – 16,1 % ga va tabiiy gaz – 6,6 % ga oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 9,9 % ga va ko'mirning – 13,1 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.



Yanvar-iyul oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2017 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Ko'mir, ming t.		
2272,0		1975,3	86,9 ↓
	Neft, ming t.		
485,3		437,5	90,1 ↓
	Tabiiy gaz, mln.kub.m.		
32206,3		34335,3	106,6 ↑
	Gaz kondensati, ming t.		
1057,6		1227,5	116,1 ↑
	Chaqiq tosh, ming t.		
495,7		744,5	150,2 ↑

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 85,5 trln.so'mni va o'tgan yilga nisbatan 107,6 % o'sish sur'atini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,3 % ni (2017 yil yanvar- iyul oylarida - 1,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 28,0 % (20,9 %), o'rta-quyi texnologiyali - 31,4 % (27,2%) va quyi texnologiyali - 39,3 % (50,0 %) tashkil etdi.

Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Respublika bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish sezilarli hissa qo'shgan holda 5,5 % ko'rsatkich bilan 2017 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,6 % ni tashkil etdi.



Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2017 yil yanvar-iyulga nisbatan 121,0%), ammoniy nitrat (120,4%), akril asosli bo'yoq va laklar (128,3%), superfosfatlar (171,8%), formaldegid (2,2 martaga), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (2,6 martaga) bo'yicha o'tgan yilning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshishi ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligiga yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ham respublika bo'yicha o'rta va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mahsulotlarining oshishiga imkon berdi. 2017 yil yanvar-iyulga nisbatan yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmlari: pluglar 115,0 martaga, traktorlar 7,5 martaga, o'roq mashinalari 37,0% ga oshirildi.

Hisobot davrida ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotining o'sishiga o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalarining qo'shgan hissasi 1,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv tizimlarini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shu jumladan, metallurgiya ishlab chiqarish quvvatlarini yanada to'liqroq ishga solish maqsadida, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investitsiyaviy jarayonlarni boshqarish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etish orqali metallurgiya sanoati korxonalarida boshqaruv samaradorligini (2017-yil yanvar-iyuliga nisbatan 104,7%) va ishlab chiqarish hajmi oshirilishi ta'minlandi: temirdan chiviriqlar, sterjenlar yoki legirlanmagan po'lat (147,9%), formali va maxsus profillar (140,7%), mis folga (102,5%).

**Yanvar-iyul oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilgansiz), dona			
79441		94371	118,8 ↑
Yuk avtomobillari, dona			
2350		1923	81,8 ↓
Avtobuslar, dona			
477		303	63,5 ↓
Avtomobil dvigatellari, dona			
59395		70534	118,8 ↑
Paxta tolasi, ming t.			
483,6		490,5	101,4 ↑
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.			
112,3		125,7	111,9 ↑

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
5559		5746	103,4 ↑
Avtomobil benzini, ming t.			
638,7		657,1	102,9 ↑
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
553,0		650,6	117,7 ↑
Portlandsement, ming t.			
4970,0		4590,7	92,4 ↓
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.			
6363,0		8162,0	128,3 ↑
Traktorlar, dona			
322		2406	7,5m. ↑



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,1 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,1 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmining – 1,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1161,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 30,2 % ga, tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 89,1 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 29,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 28,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 39,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 6,0 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 35,0 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 60,0 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oylarida 63,9 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 92,5% ni (2017 yil yanvar-iyulda 93,3%), sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,5% ni (6,7%) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 42,4 trln. So'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 120,8% ni tashkil etdi.

O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 31,4% ni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 37,5% gacha oshdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida respublika sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmini o'sishiga qo'shma korxonalarining qo'shgan hissasi 7,2% ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishni imkonini berdi.

Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi 22,1 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 77,6 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 18,3 % dan ulushini), Toshkent viloyati (16,2 %), Navoiy (11,1 %), Andijon (10,4 %), Qashqadaryo (6,7 %), Farg'ona (5,8 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Surxondaryo (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 1,3 % dan ulushini), Jizzax(1,4 %), Sirdaryo (2,1 %), Namangan (2,3 %) va Xorazm (2,6 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar Andijon (2017 yil yanvar-iyulga nisbatan 125,2%), Surxondaryo (124,4%), Xorazm (113,1%), Namangan va Toshkent shahrida (109,7%), Qashqadaryo (109,1%), Toshkent (109,0%) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (108,6%) sanoat ishlab chiqarish hajmlarini sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.


**2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha
sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy viloyatida (13009,5 ming so'm), Toshkent shahrida (8384,6 ming so'm), Toshkent (6386,5 ming so'm) va Andijon (3880,4 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (3450,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish no Surxondaryo (594,6 ming so'm), Namangan (971,7 ming so'm), Jizzax (1210,2 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan sezilarli darajada pastligi kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hajmi va o'sish sur'atlari




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 32,9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 69,7 %), Namangan (66,3 %), Jizzax (63,5 %) va Samarqand (53,6 %) oblastyax. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida (15,5 %), Navoiy (13,7 %), Toshkent (19,0 %), Qashqadaryo (21,5 %) va Andijon (21,6 %) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



**Davlat statistika qo'mitasining
Sanoat statistikasi boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

U.Elмурatov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-80-46